

O‘ZBEKISTONDA YETISHTIRILADIGAN JUN TOLALARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI TAHLILI

Baxodir Ergashov

Namangan muhandislik-qurilish instituti o‘qituvchisi

Xalimaxon Sobirjonova


Namangan muhandislik-qurilish institute talabasi

Muxtaram Muhammadiyeva

Namangan muhandislik-qurilish institute talabasi

Mamlakatimizda paxta va ipakdan tashqari jundan ham to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqariladi. Respublikamizda 20 mln. bosh atrofida qo‘y va echkilar boqilib, ulardan 12-13 ming tonna jun xom ashyosi tayyorlash mumkin. Jun tolasidan tayyorlangan mahsulotlar tabiiylik xossalari bilan, ko‘rkamligi va issiqlikni yaxshi saqlay olishi bilan ajralib turadi. Bizda asosan qo‘y junlari yetishtiriladi va qayta ishlanadi.

O‘zbekiston Respublikasida asosan sarodjin, tojik, xisori, jaydari, qorako‘l, echkilar va boshqa zotlar boqiladi.



Har bir zotdagi qo‘ylardan olinadigan jun tolalarining fizik-mexanik xossalari turlicha bo‘ladi. Sarodjin va tojik zotli qo‘ylardan yarim dag‘al, qorako‘l, xisori va jaydari qo‘ylardan esa dag‘al jun tolalari olinadi. Respublikamizning tog‘li hududlaridan eng ko‘p boqiladigan qo‘y zoti qorako‘l hisoblanadi. Bu qo‘ylardan

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

yiliga ikki marta jun tolasi olinadi, ya'ni baxorda va kuzda. Baxorda olingan jun tolalari kuzgiga nisbatan tivit tolalarining ko'pligi va yigirishda keng foydalanilishi bilan ajralib turadi. Kuzda olingan jun tolalaridan esa asosan noto'qima mato olish uchun foydalaniladi. Har ikki holatda ham jun tolalari to'qimachilik sanoatining muhim xom ashyosi hisoblanadi. O'zbekistonda yetishtiriladigan jun tolalarining 95-97% qo'ydan, 2-3% echkidan, qolgan qismi esa tuyadan olinadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi davlatlarida yetishtiriladigan va tayyorlanadigan umumiy jun miqdorining toifalarga ko'ra ulushlari 60-63% mayin, 10-12% yarim mayin, 5-7% yarim dag'al, 16-18% dag'al tolalardir.

Jun tolalari uch turga bo'linadi: tabiiy jun, korhonalarda olinadigan jun va tiklangan junlardir. Tabiiy jun hayvon tanasidan qirqish orqali olinadi. Korhonalarda olinadigan jun tolasi esa hayvonlar terisini qayta ishlashdan so'ng olinadi. Tiklangan jun tolalari esa ikkilamchi jun hom ashyosini qayta ishlashda olinadi.

Tabiiy junning 97 foizi qo'ylardan, 2 foizi echkilardan, 1 foizga yaqini boshqa hayvonlar-tuya va quyonlardan olinadi.

To'qimachilik sanoatida 97 foiz tabiiy jun ishlatiladi, qolgan 2-3 foizi tiklangan jundir.

Respublikamizda yetishtirilayotgan jun tolasining asosiy qismi dag'al tolalardan tashkil topganligi sababli, ulardan odeyalbop, dag'al paltobop, noto'qima matolar ishlab chiqariladi. Shu qatori, mahalliy jun tolalarning xususiyati juda

ko'p olimlar tomonidan o'rganilmoqda. Natijada, to'qimachilik sanoatida mazkur xom ashyodan unumli va samarali foydalanish muammosini keltirib chiqaradi.

Mahalliy jun xom ashyosini to'la qayta ishlash uchun junga ishlov beradigan korxonalarining quvvati yetishmaydi. Undan tashqari, xom ashyoning asosiy qismi xorijiy davlatlardan valyuta hisobiga kirib kelish munosabati bilan tayyor mahmulot tannarxi oshib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Hozirgi paytda xalq xo'jaligida gazlamalar, trikotaj, gilam, namat va boshqa turdagi to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda jonivorlardan olinadigan jun tolalaridan keng foydalaniladi.

Jun tolalari tarkibida 50 foiz uglerod, 21-24 foiz kislorod, 15-21 foiz azot, 6-7 foiz vodorod, 2-5 foiz oltingugurt va 1-3 foiz kulsimon moddalar bo'ladi. Jun tolasining asosiy moddasi keratin hisoblanib, u oqsil moda hisoblanadi.

Mayin junni yuvib tashlagandan keyin, 35-45 foiz toza jun chiqadi. Dag'al jundan esa 55-75 foiz jun chiqadi.

Qo'y junining qalinligi 5 dan 160 mkm gacha hamda uzunligi 25 dan 350 mm gacha va undan ham yuqori bo'lishi mumkin. Jun tolasining bu xususiyatlari uning jonivor teri qatlamida shakllanishi, oziqlanishi, tabiiy iqlim sharoitlari, yoshi va asosan qo'y zotiga bog'liq bo'ladi. Qo'y juni kuniga o'rta hisobda 0,6-0,8 mm o'sadi.

Jun tolasi suvda bo'kadi va mustahkamligi pasayadi. Quyi haroratli suvda tolaning xossalari o'zgarmaydi, lekin issiq suvda jun jun tolasi parchalanadi. Bug' esa jun tolasiga yuqori haroratli suvga nisbatan kamroq ta'sir etadi. SHu qatori, issiq havoli muhitda jun rangining o'zgarishi, mustahkamligi va cho'ziluvchanligining kamayishi kuzatiladi. Uzoq muddatda 70-80°S haroratda ta'sir etilganda tolaning xossalari qisman o'zgaradi, shuning uchun jun tolalarini quritish jarayonida harorat miqdorini 80°S dan oshirmaslik tavsiya etiladi.

Jun tolalari bosim, harorat, kimyoviy moddalar ta'sirida bir-biriga nisbatan yaqinlashib, kirishib jipslashadi va bu xususiyat uning namatlanishi deb hisoblanadi.

Terining ma'lum yuzasidagi (1mm²) jun tolalari soniga ko'ra ularni turlicha belgilash mumkin. Mayin junli qo'ylarda 1mm² yuzali teri qatlamida 26-88, yarim dag'allarda 14-38, dag'al junlarda 7-9 donagacha tola joylashgan.

Jun tolalaridan ip yigirish jarayoni paxta, ipak va kimyoviy tolalarga nisbatan bir muncha murakkabdir. Shuning uchun ulardan xom ashyo turiga ko'ra va kichik chiziqli zichliklarda ip yigiriladi. Ingichka ip ishlab chiqarishda mayin hamda yarim mayin(merinos) junlardan, kata yo'g'onlikdagilari uchun yarim dag'al va dag'alxom ashyodan foydalaniladi. O'zbekistonda boqilayotgan qo'ylardan bir xil bo'lmagan tarkibli jun qirqib olinib. Sarojin, tojiki-yarim dag'al, qorako'l, hisori va jaydari zotlilaridan dag'al jun tayyorlanadi.

Dag'al va yarim dag'al junlarni tarkibidagi tolalar turlicha bo'lganligi hamda yigirish jarayonida vujudga keladigan murakkabliklarni yengillashtirish uchun ularni yo'g'onligi bo'yicha saralash maqsadga muvofiqdir.

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

Jun tolalarini qalinligi bo'yicha mexanik usulda ajratish yo'nalishida bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan. 1835 yilda davriy tarash jihozi yordamida saralashda tolaning uzunligi asosiy ko'rsatkich sifatida olingan. Tolaning 21-25 mkm yo'g'onligiga 50-70 mm uzunligi to'g'ri kelgan. Keyinroq, 1924-25 yildan boshlab, Iozeri va Gartman firmasining ikki kara tarashli jihozida echki juni uzunligi bo'yicha saralanganda 70% dag'al tolalar ajratildi. 1955 yilda Frantsiyaning Tibol firmasi tomonidan tayyorlangan tarash dastgohida tuya juni yo'g'onligi bo'yicha ajratilganda uning imkoniyatlari va tola sifati avvalgilariga nisbatan ortdi. Mexanik usulda saralashda tola ignalar ta'sirida shikastlanishi mumkin.

Buxoro(qorako'l) qo'yi juni ustida olib borilgan tadqiqotlarda tolalarni kata uzunlikda (bir-biridan 30 mm ga farqlanuvchi) fizik-mexanik xususiyatlarini o'rganildi. Katta uzunlikdagi tolalarning xususiyatlari ularni yo'g'onligi bo'yicha saralashda nomutanosibliklarni vujudga keltiradi.

Bu izlanishlar bir muncha eski texnika-texnologiya imkoniyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilgan. Hozirgi kungakelib, to'qimachilikda, asosan, sifatga e'tibor berilayotganligini inobatga olsak, uzunlik kata farqlanuvchi oraliqlarda emas, balki kichik uzunliklarda tadqiqot ishlarini olib borish zarurligi namoyon bo'ladi.

Jun tolalaridan iplar ishlab chiqarishda ular tarkibidagi chiqindi va nuqsonlar kata qiyinchiliklar tug'diradi. Jun tarkibida o'simlik qoldiqlari, organik chiqindilar hamda tolalardagi yog' va ter moddalar, mineral chiqindilar, qirqim davri (kalta tolalar, mayda turli tarkiblar) nuqsonlari uchraydi. Ularning miqdori qo'ylarning zotiga, jun turiga, boqish rejimiga, ozuqa tarkibiga, iqlim sharoitiga va boshqa omillarga bog'liq.

O'tkazilgan ilmiy-tadqiqot natijalarida mayin junli qo'ylarga nisbatanasosiy e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasida boqiladigan Buxoro (qorako'l) qo'yi juni tarkibidagi yog' va ter moddalarining birgalikdagi (4,5-13,8%) miqdorini aniqlagan. Boshqa turdagi chiqindilarning xom ashyodagi ulushi keltirilmagan. Chiqindi va nuqsonlar miqdoriga qo'yning zoti, oziqlanishi, yillik ob-havoning o'zgarishi katta ta'sir ko'rsatadi.

Kuzatishlar natijalari shuni ko'rsatdiki dag'al junli zotlarga belgilangan bo'lsa ham zoti, boqish usuli, iqlim sharoiti bo'yicha O'zbekistonda hozirgi kunda yetishtirilayotgan qo'y zotlaridan farq qiladi. Mahalliy jun tolalari tarkibida notola

chiqindilar miqdorini hozirgi kun sharoitida o'rganishni talab qiladi. Ko'plab izlanuvchilarning xulosa va takliflariga ko'ra jun tolalari tarkibidagi mazkur nuqson hamda iflosliklardan kelib chiqqan holda ularga ishlov berish usullari tanlanadi. Xom ashyo tarkibidagi mineral (tuproq,qum) chiqindilar, o'simlik qoldiqlarining bir qismi mexanik ta'sir qilish orqali ajratib olinadi, tolalarga kuchli o'rnashib qolgan o'simlik qoldiqlari kuchsiz kislotalarda ishlov berish (karbonlash) orqali, organik chiqindilar va yog' moddalari ma'lum haroratli suyuqliklarda yuvish yordamida bartaraf qilinib, yigirishga tayyorlanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Bakhodir, E. (2021). Effects of Change on Cotton Harvesting Physical and Mechanical Performance. International Journal of Innovative Analyses and Emerging Technology, 1(7), 9-13.
2. Mirkhojaev, M. M., & Ergashov, B. A. O. (2020). Analysis of determination of cotton field quality as a result of changes in technological processes. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research, 9(6), 38-44.
3. Baxodir, E., Azimjon, M., & Hayitali, O. (2022). PAXTANI YETISHTIRISHDAGI IQLIMIY SHAROITNI UNDAN OLINADIGAN TOLA SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 89-94.
4. Ruxiddinovna, N. Y., & Ayubjanovna, T. G. (2022). GENERAL DEVELOPMENT OF EDUCATION IN TECHNICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS METHODOLOGICAL PRINCIPLES. Journal of Positive School Psychology, 8560-8566.
5. Baxodir, E., Hayitali, O., & Ramshid, A. (2022). IPAK QURTINI BOQISH SHAROITINI OLINADIGA IPAK MAHSULOTLARI SIFAT KO 'RSATKICHLARIGA TA'SIRI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 95-100.
6. Bakhodir, E., & Mastona, N. (2022). Product Quality of Regulatory Documents Place for Improvement. Journal of Ethics and Diversity in International Communication, 2(3), 71-74.
7. Baxodir, E., & Ramshid, A. (2022). KO 'MIR MAHSULOTLARINING NAVLARI BO 'YICHA QIYOSIY TAHLILI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 101-105.

8. Baxodir, E., & Asadbek, A. (2022). GIDRAVLIK VA MEXANIK PRESSLAR YORDAMIDA SUV TASHISH MASHINALARINING MUVOZANATDAN CHIQIB KETISHINI OLDINI OLISH USULLARI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 1-4.
9. Bakhodir, E., & Ramshid, A. (2022). Comparative Analysis of Coal Products Extracted From Central Asian Coal Deposits. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences, 2(5), 9-12.
10. Нишонов, Ф. А., Мелибоев, М., Кидиров, А. Р., & Акбаров, А. Н. (2018). Буксование ведущих колес пропашных трехколесных тракторов. Научное знание современности, (4), 98-100.
11. Djuraev, A., Kenjaboyev, S. S., & Akbarov, A. (2018). Development of Design and Calculation of Frictional Force in Rotational Kinematic Pair of the Fifth Class with Longitudinal Grooves. Development, 5(9).
12. Алимджанова, Д., Акбаров, А., & Муйдинова, Н. К. (2017). Способ повышения эффективности горения угольного топлива в кольцевой печи. In Issues of modern education in the condition of globalization. Collection international scientific conference.
13. Акбаров, А. Н. (2018). Обжиг кирпича твёрдым топливом взамен газа. Научное знание современности, (4), 40-43.
14. Алимджанова, Д. И., Абдусатторов, Ш. М., Муйдинова, Н. К. К., & Абдуганиев, Ш. Х. У. (2021). Водугольное топливо на основе бурого угля Ангренского месторождения. Universum: технические науки, (3-2 (84)), 68-72.
15. Абдуманнопов, Н. А. (2018). Модернизация кольцевой печи для обжига строительного кирпича. Научное знание современности, (12), 25-29.
16. Алимджанова, Д. И., & Муйдинова, Н. К. К. (2020). Повышение эффективности горения угольного топлива в кольцевой печи для обжига строительного кирпича. Universum: технические науки, (4-1 (73)), 67-71.